

MATN SHAKLLANISHIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Jabbarova Yulduz Xujamuradovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali ingliz tili fani o‘qituvchisi

АННОТАЦИЯ: Mazkur maqolada til birliklarining kommunikativ qiymati ularning matn yaratilishidagi o‘rni, kommunikatsiya jarayonidagi ishtiroki haqida keng yoritib berishga harakat qilingan. Matn shakllanishida qarindoshlik atamalarining o‘ziga xos o‘rni, qarindoshlik atamalarining paremiyalardagi kommunikativ kategoriya ifodasi tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: Birliklar, qarindoshlik atamaları, matn, struktura, paremiyalar, kommunikativ kateoriya, kategorial belgi, mazmuniy, shakl, belgi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье предпринята попытка объяснить коммуникативное значение языковых единиц, их место в создании текста и их участие в процессе общения. Описана конкретная роль терминов родства в формировании текста, выражение коммуникативной категории терминов родства в паремиях.

Ключевые слова: Единицы, термины родства, текст, структура, паремия, коммуникативная теория, категориальный признак, смысл, форма, знак.

ANNOTATION: This article attempts to explain the communicative meaning of linguistic units, their place in the creation of text and their participation in the communication process. The specific role of kinship terms in the formation of the text and the expression of the communicative category of kinship terms in proverbs are described.

Key words: Units, kinship terms, text, structure, proverbs, communication theory, categorical feature, meaning, form, sign.

Ma'lumki, til birliklarining kommunikativ qiymati ularning matn yaratilishidagi o‘rni, kommunikatsiya jarayonidagi ishtiroki bilan belgilanadi [Бабина., Шепелева. 2008: 40]. Bundan qarindoshlik atamaları ham mustasno emas. Tugal kommunikativ hodisa–matn tarkibida qarindoshlik atamaları turli vazifalarni bajaradi, boshqacha aytganda, ular matn kategorial belgilari ifodalanishida ishtirok etadi va bu ishtiroki matn shakllantiruvchi qiymatga ega bo‘ladi. Matn kommunikativ mazmunining uni shakllantiruvchi vositalarning struktur-semantik xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish muhimdir. Qarindoshlik atamaları ham o‘zlari qo‘llanilayotgan matn bilan funksional-semantik jihatdan munosabatga kirishadi va shu bois ularni “struktura – semantika – vazifa” uchligi doirasida tahlil qilish imkoniyati bor. Bunday tahlilda qarindoshlik atamalarining gap va matn sathlarida bajaradigan vazifalarini farqlash talab qilinadi. Albatta, qarindoshlik atamalarining gap tarkibida bajaradigan ba’zi vazifalari matn doirasida takrorlanayotib, boshqacha ko‘rinish va mazmun oladilar. Masalan, gap tuzilishidagi modallik matn modallik maydoni shakllanishida o‘z o‘rniga ega.

Matnning eng yirik nominativ va kommunikativ birlik sifatida talqin qilinishi barchaga ma’lum va ushbu birlikni ikki yo‘nalishda, ya’ni nutqiy faoliyat mahsuloti yoki uning yaratilish jarayonida o‘rganish odatga aylangan. Birinchisida matnning tuzilishi, strukturasi tahlil qilinsa, ikkinchisida konseptual qolipning lisoniy voqelantiruvchi amallar va vositalarning faollashuv ko‘lami aniqlanadi. Har ikki yo‘nalishda ham matn til tizimining

turli sathlariga oid birliklarning pog'onali munosabatini aks ettiruvchi hodisa sifatida tushuniladi. Matn grammatikasiga oid tadqiqotlarda matnning yaxlitligi barcha qismlar va bo'laklar o'zaro munosabati zamirida ta'minlanishi ta'kidlansa-da, lekin uning yaratilishi jarayoni muammosi shu paytgacha asosan gap va matn doirasida tahlil qilib kelinmoqda. Ishimizning obyekti bo'lmish qarindoshlik atamalarining yaratilishi ham matn shakllanishi doirasida idrok etilishi lozim, chunki uning yaratilishi axborot uzatilishi, kommunikativ munosabatlar paydo qilish maqsadi bilan bog'liq.

Nutq tizimida qarindoshlik atamaları tilning leksik, grammatik va sintaktik sathiga oid turli birliklar bilan uzviy va ajralmas munosabatlarga kirishib, matn tuzilishini ta'minlovchi vositalar qatoridan o'rin oladilar. Aytish joizki, turli guruhlarga oid qarindoshlik atamalarining matnda bajaradigan vazifalari o'zaro farq qilishi ham mumkin, chunki ular bir paytda nominativ va ekspressiv vazifalarni bajaradilar. Quyida qarindoshlik atamalarining matn tuzilishidagi roli borasidagi kuzatuvlarimiz natijalarini sharhlashga harakat qilib ko'ramiz.

Matn kategorial belgilari masalasiga keladigan bo'lsak, ushbu masala keyingi yillarda qizg'in muhokama qilinayotganligiga qaramasdan, tilshunoslar yakuniy xulosaga kelganlari yo'q [Бегранде; Чернявская; Галперин; Москальская.]. Matnning maqomini belgilovchi xususiyatlarning ajratilishi turli asoslarga ega. Binobarin, V.E.Chernyavskayaning qaydicha, matnning tugalligini ifodalovchi kogeziya kategoriyasi matn qismlarining grammatik va mazmun jihatidan bog'liqligini aks ettiradi. Bunday yondashuvda matn tuzilishining grammatik modeli birinchi o'ringa chiqadi. Kogerentlik va informativlik belgilari inobatga olinayotganida esa, matn tavsifida semantik mo'ljal oldingi o'ringa chiqadi [Чернявская. 2007: 306]. Fikrimizcha, matn qismlarining grammatik-leksik bog'lanishi hamda yaxlit mazmunning shakllanishi yagona sharoitda – kommunikativ birlik hosil bo'lishi jarayonida kechadigan hodisalardir. Yagona hodisaning turli tomonlarini o'rganish funksional yondashuvning imkoniyatlarini yanada qat'iylashtiradi.

Matn shakllanishida qarindoshlik atamalarining ham o'ziga xos o'rni bor. Bu borada, ayniqsa, qarindoshlik atamalarining semantikasi va matn mazmuniy kategoriyalari o'rtasidagi munosabat alohida e'tiborga loyiqdir. Sezilarli darajada doimiy bo'lgan ushbu munosabatni hech qanday qiyinchiliksiz matn referentligi va nominativ birikmalar o'rtasidagi aloqada ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday mazmuniy bog'liqliklar ekspressiv atamalarining matn modalligi ifodasidagi ishtirokida ham namoyon bo'ladi.

Matn mazmuniy va struktur xususiyatlari kommunikativ-pragmatik kategoriyalar faollashuvini ta'minlaydi. Bunday kategoriyalardan biri kommunikativ intensiya – maqsaddir. Qarindoshlik atamalarining semantik xususiyatlari shunday kommunikativ kategoriya ifodasida ham o'z o'rniga ega. Buni, ayniqsa, paremiyalar, ya'ni kichik janrdagi matnlarda (anekdot, maqol, matal, reklama matnlarida) yaqqol ko'rish mumkin. Maqol va aforizmlarda matnning alohida turlari sifatida odamlar xulq-atvorining normalari va stereotiplari belgilanadi, bu ko'pincha turli xil lisoniy va madaniy tadqiqotlarni o'tkazishda zarur manba sifatida qaraladi (П.Гиро, А.В.Кунин, А.Г.Назарян, Г.Л.Пермяков, Ю.А.Сорокин, А.Е.Супрун).

Qarindoshlik atamalarining paremiyalardagi kommunikativ kategoriya ifodasini tasvirlash uchun paremiyalarning ikkinchi mavzuiy guruhi "nikoh orqali qarindoshlik" atamaları tanlab olindi. Yuqorida ta'kidlanganidek, "nikoh orqali qarindoshlik" atamaları taqqoslanayotgan tillarda quyidagi tematik guruhlarga bo'linadi:

1. turmush o'rtoqlarning o'zaro munosabatlari;
2. urning xususiyatlari;
3. xotinning xususiyatlari;
4. nikoh orqali qarindoshlarning munosabatlari.

Barcha paremiyalar ijobiy baho beradigan paremiyalarga va salbiy baho beradigan paremiyalarga bo‘linadi. Paremiyalarning birinchi tematik guruhi qiyosiy tahliliga murojaat qilamiz. Ingliz va o‘zbek tillarida paremiyalar turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlarga ijobiy baho beradi: - Darby and Joan; Xotinli ro‘zg‘or guldir, хотинсиз ro‘zg‘or cho‘ldir. Ingliz paremiyasidagi Darbi va Jon qadimiy G.Vudfoll balladasi qahramonlarining nomlari bo‘lib, turmush qurgan ushbu juftlik bir-biriga nihoyatda mehribon bo‘lganlar [Кунин. 2006: 123].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бабина Л.В., Шепелева Д.А. Когнитивные основы формирования окказиональных значений сложных слов, образованных по модели N+N // Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2008. № 2. – С. 39-50.
2. Чернявская В.Е. Текст в когнитивно-дискурсивной парадигме: к вопросу о градуальном характере текстуальности // ActaLinguistica Metropolitana. Т.III, ч.1.– Санкт-Петербург: Наука, 2007. –С. 303–314.
3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд., перераб. А. В. Кунин. – М.: Высш. шк., Дубна: Изд. центр Феникс, 2006 – 381 с.